QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RUSTAMOVA ZAMIRA BOBOKULOVNA

O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI TARIXI (1991–2022-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

UO‘K: 950:796.5(021)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Rustamova Zamira Bobokulovna
O‘zbekiston Republikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati tarixi (1991–2022-yy.)..... 5

Рустамова Замира Бобокуловна
История деятельности женщин в органах внутренних дел Республики Узбекистан (1991-2022 гг.)..... .27

Rustamova Zamira Bobokulovna
History of women's activities in internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan (1991-2022)..... 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications..... 59

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

RUSTAMOVA ZAMIRA BOBOKULOVNA

O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI TARIXI (1991–2022-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1456 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ergasheva Yulduz Alimovna** tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yermetov Avaz Abdullayevich** tarix fanlari doktori, professor
	Kabulov Eshbolta Atamuradovich tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" yanvar soat 11:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz.). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (254 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "3" yanvar kuni tarqatildi
(2025-yil "3" yanvar dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

N.N. Rajabova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n., dots.

O. Bo'riyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari t.f.n., dots.

Сканировано с CamScanner

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr dunyo miqyosida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham, xotin-qizlar masalasiga e’tibor kuchayib, ularning manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy-me’yoriy asoslarning ishlab chiqilishiga va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha xalqaro hamda milliy darajadagi institutlar tashkil etilishiga zamin yaratdi. BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini yaxshilash, professional tayyorgarligini oshirish, gender tenglikning barcha shakllarini ta’minlash vazifalari belgilab berilishi, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi jahon miqyosida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan xotin-qizlarning jamiyatdagi islohotlarni amalga oshirishdagi ishtiroki masalalarini har tomonlama o‘rganish ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Jumladan, ichki ishlar organlariga xotin-qizlarni jalb etilishi, ichki ishlar organlarida xotin-qizlar ishtirokining o‘zgarishi, ularning kasbiy tayyorgarligi va faoliyatidagi zamonaviy usullar va texnologiyalardan foydalanishi, shuningdek, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar kabi masalalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yondashuvlar ichki ishlar organlarida xotin-qizlarning faoliyatini yanada samarali tashkil etish va ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash hamda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yurtimizda mehnatkash, olijanob xalqimiz, birinchi navbatda, xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan”[1]. Shu bois xotin-qizlar huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish barobarida ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotida duch kelayotgan muammolarni, jumladan, zo‘ravonlik va kamsitilish kabi illatlarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayon O‘zbekistonning ichki ishlar organlarida ham xotin-qizlar masalasiga bo‘lgan yondashuvini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Mazkur holat mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarida xotin-qizlar sonining oshishi, ularning turli lavozimlarda faol ishtirok etishi va gender tenglikni ta’minlash borasidagi siyosatni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish zarurati borligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida xotin-qizlarning ichki ishlar tizimida rolini mustahkamlash, ularning kasbiy malakasini oshirish va lavozimlarda ilgarilashini ta’minlovchi zamonaviy ta’lim

[1] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi. 2024-yil 7-mart.// https://president.uz/uz/lists/view/7076

metodlari va strategiyalarni joriy etish, shuningdek, sohada gender tenglikni ta’minlash dolzarbligini ko‘rsatdi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ–562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida[2]”gi Qonuni, 1995-yil 2-martdagi PF-1084-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[3]”gi Farmoni, 1999-yil 17-martdagi PF–2246-sonli “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[4]”gi Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-sonli “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[5]”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida[6]”gi Farmoni, Ichki ishlar vazirining 2020-yil 16-maydagi “Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha Maslahat kengashini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda 2021-yil 24-sentabrdagi “Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar jamoatchilik kengashlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyruqlari va shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi va gender tenglikka oid ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu mavzu va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu mavzudagi mavjud adabiyotlarni uslubiy yondashuvlar va muammoviy-xronologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda guruhlash mumkin: 1) O‘zbekistonda mustaqillik davrida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlar; 2) xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari.

Birinchi guruh adabiyotlarini O‘zbekistonda mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy ishlar, maqolalar va tadqiqotlar tashkil etadi. Bunda N. Jo‘rayeva, G. G‘aniyeva, N. Toliboyeva, M. Boltaboyeva, M. Shamsiyeva, D. Attayeva, O. Raxmonqulova,

[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 4-son, 71-modda.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 3-son, 72-modda.
[5] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2017-y., 07/17/3413/0334-son.
[6] PF–60-son 28.01.2022. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz)

S. Omonova[7] kabi olimalar o‘z tadqiqotlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlardagi ishtirokining ayrim jihatlari tarixiy nuqtayi nazardan bayon etganlar. Bu davrda turli fan sohalarida ham ayollar muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, G. Matkarimova, S. Safayeva, J. Bobonazarova, S. Xodjayeva, A. Irmatova, A. Huseynova, M. G‘afforova, G. Axmedova[8] kabi olimalar tadqiqotlarida xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ijtimoiy himoyalash, huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi masalalar tahlil qilingan.

Shuningdek, Z. Gulyamov, M. Boboyev, A. Soatov, N. Taumuratov, T. Raxmonov, A. Yermetov, Q. Qodirov, B. Allayorov[9] va boshqalarning tadqiqotlarida ichki ishlar organlarining faoliyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar tadqiq etilgan. Biroq mustaqillik yillarida sodir bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy va

---

[7] Жўраева Н. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни. Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2004. – Б. 161; Ғаниева Г. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи: янгича ёндашув, муаммолар ва ечимлар (мустақиллик даври 1991-2005 йй.): Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005. – Б. 161; Балтабаева М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2017 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 53; Шамсиева М. “Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ўрни (1991-2010 йиллар)”. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 52; Толибоева Н. Ўзбекистон хотин-қизларининг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ислоҳотларни амалга оширишдаги фаолияти (1991-2018 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019 – Б. 54; Аттаева Д. Хоразм вилояти хотин-қизларининг жамият ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўрни (1991-2018 йиллар) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Нукус, 2020 - Б. 48; Raxmonqulova O.A. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida xotin-qizlarning o‘rni (Janubiy viloyatlar misolida, 1991-2020-yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2022 – 54 b.; Omonova S.O. O‘zbekistonda xotin-qizlar sportini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish ishi tarixi (1991-2021-yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Qarshi, 2022. – 54 b.

[8] Маткаримова Г. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф. дисс. доктора юрид.наук. – Ташкент, 2002. – 41 с.; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлари. Фалсафа фан. номзод. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 20 б.; Бобоназарова Ж. Қишлоқ аёлларининг ишсизлигини камайтириш (Жиззах вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2002. – 138 б.; Ходжаева С. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан. Автореф. дисс. ...канд. юрид. наук. – Тошкент, 2004. – 26 с.; Ирматова А. Ишсиз аёлларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш (Тошкент вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 150 б.; Ҳусейнова А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида аёллар фаоллигини ошириш муаммолари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари докт. ... дисс. – Тошкент, 2011, – 300 б.; Ғаффорова М. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизлар мавқеи. Социология фанл. ...доктори (PhD). ...дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 44 б.; Axmedova G.U. Ayollar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tashning o‘ziga xos xususiyatlari va uning takomillashtirilishi. Yuridik fanlari doktori (DSc) avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 42.

[9] Гулямов З. Проблемы совершенствования деятельности милиции в период становления демократического правового государства. Автореф. дисс. … канд. юрид. наук. – Тошкент, 1995; Бобоев М., Соатов А. Сурхондарё милицияси. – Самарқанд: Суғдиён, 1998; Таумуратов Н. История милиции Каракалпакистана в период восстановление национальной государственности (1917-1936 гг.). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. – Нукус, 1999; Таумуратов Н. Органы внутренних дел Республики Каракалпакистан в годы независимости: страницы истории МВД РК. – Нукус: Каракалпакистан, 2003; Андижон милицияси: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. – Андижон, 2008; Раҳмонов Т. Сирдарё милицияси халқ хизматида. – Тошкент: Muharrir, 2012; Ерметов А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918-1924 йиллар). Тарих фанлари номзоди...диссертация автореферати. – Тошкент, 2006; Ерметов А.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй.). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019; Қодиров Қ.Б. Мустақиллик даврида Ўзбекистонда ички ишлар органлар фаолияти (1991-2011 йиллар) номли т.ф.ф.д. (PhD) дисс... автореф. -Тошкент, 2019; Qodirov Q.B. O‘zbekistonda penitensiar muassasalar faoliyati tarixi: Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 202 b.; Allayorov B.E. Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati (1917-1991-yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref. – Termiz, 2024.

iqtisodiy o‘zgarishlar fonida ichki ishlar organlarida xotin-qizlarning faoliyati va ularning lavozimlardagi ishtiroki kengayganini ko‘rsatuvchi masalalar mahalliy tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Ikkinchi guruhga global va mintaqaviy miqyosda, O‘zbekiston tashqarisida, xorijda chop etilgan va ichki ishlar organlarida, xotin-qizlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan ilmiy ishlar va adabiyotlarni qamrab oladi.

Mavzuga oid xorijlik mualliflar M. Shelkunova, G. Mayorova, Krolokke Charlotte, Anne Scott Sorensen, V.R. Romanova, Wohrmann Frieder, A. Balgabekova, M. Pikulina, M. Borovskiy, M. Xachikyan, V.G. Gromov, V.A. Kazakova[10] va boshqalarning ishlarida jahonda ayollar hayotida vujudga kelgan muammolarning amaliy va nazariy yechimlarini izlash, oila va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan tendensiyalar masalalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining tarixi, uning tashkiliy tartibga solinishiga oid masalalar tadqiq etilgan. Xorijiy adabiyotlarda xotin-qizlarning faoliyatiga oid, shu jumladan, ichki ishlar organlarida, tajribalar, ularning kasbiy rivojlanishi, xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlar tahlil qilinadi.

Mavzuning qisqacha tarixshunosligi shundan dalolat beradiki, yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda asosan O‘zbekistonda xotin-qizlarning o‘rni va faoliyati hamda respublika ichki ishlar organlarining turli jihatlarini qamrab olingan bo‘lsa-da, biroq ichki ishlar organlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlar masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida tarixchilar tomonidan o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot muammolari” bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1991–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining oralig‘ida ro‘y bergan o‘zgarishlar tarixini ilmiy jihatdan tahlil qilish va baholashdan iborat.

---

[10]Шелкунова М. Организационно-правовые основы службы женщин в полициях зарубежных стран. Дисс. канд. юр. наук. – М., 1999. – 285 с.; Майорова Г. Правовой статус женщины в переходной период // Женщины Центральной Азии за мир и стабильность. – Ташкент–Хужанд, 2000. – С. 27; Wohrmann Frieder. Economic Discourse in Uzbekistan: The Perception of Economic Change Between Market Principles and Social Traditions. – Bochum, 2000. – 278 p.; The status of women and children: Uzbekistan, multiple indicator cluster subrey – UNISEF (The United Nationals Children fund) – N.Y, 2001. – 81 p.; Uzbekistan Enerjy sector: Issues, analysis and agenda for reform. R. Sharma, Z. Breford, M. Iskakov, P. Thomson. – Washington: the World Bank, 2003. – 42 p.; Uzbekistan country financial accountability assessment Document of the World Bank, October 19, 2004. – Washington: the World Bank, 2004. – 53 p.; Krolokke, Charlotte; Anne Scott Sorensen. Gender Communication Theories and Analyses: From Silence to Performance. – Sage Publications, 2005. – Tree Waves of Feminism: From Suffragettes to Grrls; Романова В.Р. Служба женщин в органах внутренних дел: правовые и организационные аспекты. Дисс. канд. юр. наук. М., 2007. – 231 с.; Balgabekova, A. Promoting Women's Rights in Central Asia: Implications for Democratic Development.; Pikulina, M. (2006). Power Structures and Problems of Law Implementation in Uzbekistan. Realities of Transformation: Democratic Politics in Central Asia Revisited, edited by Andrea Berg et al, 2009. – P. 143-155; Боровский М., Платек М. История развитие пенитенциарной системы Польши. Ярославский педагогический вестник. 2009. № 4. – С. 12-22.; Хачикян А.М. История тюремной системы Армении. – Ереван, 2009; Громов В.Г., Казакова В.А. Женская преступность: Отбывающих лишение свободы (по материалам специальной переписи осужденных 2009 г.) // Человек: преступление и наказание. – М., 2019. 27(1–4). № 2. – С. 233-237.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Mustaqillik yillarida gender tenglikni ta’minlash va ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatida xalqaro tajriba masalasini retrospektiv tarzda ochib berish;

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid normalar shakllanishining asosiy bosqichlarini tadqiq etish;

ichki ishlar organlari tizimidagi bilim yurtlarida ayol kadrlarning tayyorlanishi va tizimdagi o‘zgarishlarlarini tahlil etish;

sohadagi kadrlarning ish bilan ta’minlanish masalalari va shaxsiy tarkibda xotin-qizlarning o‘rnini ko‘rsatib berish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz kadrlarning faoliyatini tadqiq etish;

ichki ishlar organlarida davlat tomonidan e’tirofga sazovor bo‘lgan xotin-qizlar va ularning muvaffaqiyatini tahlil qilish;

mavzu bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1991–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati tarixi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, vazifalar, ularning kasbiy faoliyati, lavozimlari, jamiyatdagi o‘rni va bu jarayonlarda ro‘y bergan o‘zgarishlar hamda rivojlanish tendensiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xronologik izchillik va tarixiylik tamoyillari, xolislik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, retrospektiv, og‘zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

O‘zbekistonda ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish natijasida: birinchi bosqich – 1991–1997-yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiluvchi poydevor yaratilganligi, sohada xodimalar sanoqli bo‘lganligi, ichki ishlar akademiyasiga birinchi kursant qizlar qabul qilinganligi; ikkinchi bosqich – 1998–2016-yillarda ichki ishlar organlarida oliy ma’lumotli huquqshunos xotin-qizlarning soni ko‘payishi hamda milliy kadrlarning etishib chiqqanligi; uchinchi bosqich – 2016-yildan boshlab “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan tizimda islohotlar olib borilishi natijasida 2020-yildan sohada xotin-qiz xodimalar alohida xizmatining tashkil topishi, kasbiy malakasini oshirish va lavozimlarda ilgarilashini ta’minlovchi zamonaviy ta’lim metodlari va strategiyalarni joriy etish, soha xodimalarini ijtimoiy himoyalash va rag‘batlantirishga e’tibor qaratilganligi qiyosiy tahlillar asosida dalillangan;

Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ta’lim tizimida xotin-qizlarning salmog‘i yildan yilga dinamikasi o‘sganligi, milliy tarkibda ham o‘zgarishlar bo‘lganligi, mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar akademiyasi tashkil etilgandan so‘ng xotin-qiz kursantlari uchun viloyatlar kesimida kvotalar ajratilmaganligiga qaramasdan so‘nggi yillarda akademiyada xotin-qizlar salmog‘i 10 foiz ga etganligi, ayrim yillarda esa undan ham ko‘p kursantlar qabul qilinganligi, ichki ishlar liseylari tashkil etilganligi oliy va o‘rta maxsus

ma’lumotli mutaxassis xodimalarining ko‘payganligi evaziga nomutaxassis kadrlar ichki ishlar organlariga qabul qilinmaganligi, akademiya va o‘rta maxsus bilim yurtlarida o‘quv-uslubiy jarayonda innovatsion yondashuvlar, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanganligi, ilmiy salohiyatli xotin-qiz professor-o‘qituvchilarning soni oshganligi aniqlandi;

Mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar tizimida xotin-qizlar soni sanoqliligi, ular dastlab tizimga erkin yollangan xodim sifatida kirib kelishganligi, asosan kotiba-mashinist, viloyat IIB da Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlariga qarashli bo‘lgan Manzil-ma’lumotlar idorasida ro‘yxatchi, pasport bo‘linmalarida pasportchi hamda axborot markaz kartotekalarda ro‘yxatchi, aloqa bo‘limlarida telefonist kabi lavozimlarida ishga qabul qilinganligi, keyingi yillarda xotin-qizlar orasidan professional huquqshunos kadrlar bilan birga sport sohasida erishgan yutuqlari natijasida ichki ishlar organlariga o‘zbek qizlarining kirib kelishi asosan erkaklar bilan harbiylashgan tartibot o‘rnatilgan sohada ishlashiga milliy mentalitet bilan bog‘liq streotiplar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganligi, ichki ishlar idoralariga xotin-qizlar xizmati bilan bog‘liq bir nechta muammolar (ish vaqtining belgilanmaganligi oilaviy muhitga ta’siri, yuqori turuvchi rahbarlarning buyrug‘ini harbiylashgan tizimdek so‘zsiz bajarilishi, jismoniy holati va tayyorgarligi, ichki ishlar imidjiga mosligi talab etilishi va b.), sohaning ayrim yo‘nalishlari (Jinoyat qidiruv, yo‘l patrul, patrul post, tezkor, mahbuslarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linma – konvoy xizmatlari)da xotin-qizlarni jalb etilmasligi aniqlandi;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot davrida ichki ishlar organlarida maxsus xotin-qizlar bo‘linmasi tashkil etilganligi, tizimda rahbar xodimalar soni oshganligi, huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz xodimalarning ayollar bilan ishlash samaradorligi oshganligi va jamiyatdagi ta’siri, jamoadagi ishonchni qozonishdagi o‘rni, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi hissasi, kasbiy faoliyati va lavozimlarda shahodatlangan xodimalar soni o‘sganligi va xalqaro standartlarga yaqinlashganligi hamda sohada yutuqlarga erishgan, samarali mehnat qilgan ichki ishlar xodimalarni davlat va idoraviy mukofotlanganlar dinamikasining oshganligi, tizimda xotin-qizlarga bog‘liq turli tanlovlar (“To‘maris izdoshlari”, “Fidoyi ayol xodima”, “Kitobxon ayol xodima”, “Namunaviy oila”) tashkil etilganligi va xodimalarni munosib tarzda rag‘batlantirib borilganligi birlamchi manbalar asosida isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar, yo‘riqnomalar hamda nizomlarning ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga ta’sir etgan omillari aniqlandi; tarix fanida tan olingan metodologiya va fanlararo yondashuvlar asosida XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ziddiyatli muammolarni tadqiq etishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy-uslubiy jihatlar aniqlandi;

O‘zbekistonning 1991–2022-yillar tarixi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda ushbu tadqiqot materiallarining foydali jihatlari ko‘rsatib berilgan;

Xorijiy davlatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya) politsiya tizimining ilg‘or tajribasi va o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil etilib, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qiz xodimlarini tayyorlashda keng foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotni o‘tkazishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanilganligi, tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajriba, umum e’tirof etgan qoidalar va boshqa ishonchli manbalar, yetarli ilmiy dalillar asosida isbotlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilinganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanib amaliyotga joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini tarixiy jihatdan tadqiq etish asosida olingan natijalardan ushbu yo‘nalishdagi metodologik-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, “Jahon tarixi”, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq”, “Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari” kabi fanlarni o‘qitishda, O‘zbekiston Respublikasining 1991–2022-yillar davri tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda, ta’lim muassasalari, IIV akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik va qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Republikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati tarixi (1991–2022-yillar) bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va olingan ilmiy natijalaridan:

O‘zbekistonda ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish natijasida: birinchi bosqich – 1991–1997-yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiluvchi poydevor yaratilganligi, sohada xodimalar sanoqli bo‘lganligi, ichki ishlar akademiyasiga birinchi kursant qizlar qabul qilinganligi; ikkinchi bosqich – 1998–2016-yillarda ichki ishlar organlarida oliy ma’limotli huquqshunos xotin-qizlarning soni ko‘payishi hamda milliy kadrlarning etishib chiqqanligi; uchinchi bosqich – 2016-yildan boshlab “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan tizimda islohotlar olib borilishi natijasida 2020-yildan sohada xotin-qiz xodimalar alohida xizmatining tashkil topishi, kasbiy malakasini oshirish va lavozimlarda ilgarilashini ta’minlovchi zamonaviy ta’lim metodlari va strategiyalarni joriy etish, soha hodimalarini ijtimoiy himoyalash va rag‘batlantirishga e’tibor qaratilganligi qiyosiy tahlillar asosida dalillanganligi bo‘yicha ilmiy xulosalardan foydalanildi (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 27-noyabrdagi 01-31-1772-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar ichki ishlar tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xotin-qizlar haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar.

Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ta’lim tizimida xotin-qizlarning salmog‘i yildan yilga dinamikasi o‘sganligi, milliy tarkibda ham o‘zgarishlar

bo‘lganligi, mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar akademiyasi tashkil etilgandan so‘ng xotin-qiz kursantlari uchun viloyatlar kesimida kvotalar ajratilmaganligiga qaramasdan, so‘nggi yillarda akademiyada xotin-qizlar salmog‘i 10 foiz ga etganligi, ayrim yillarda esa undan ham ko‘p kursantlar qabul qilinganligi, ichki ishlar liseylari tashkil etilganligi oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassis xodimalarningi ko‘payganligi evaziga nomutaxassis kadrlar ichki ishlar organlariga qabul qilinmaganligi, akademiya va o‘rta maxsus bilim yurtlarida o‘quv-uslubiy jarayonda innovatsion yondashuvlar, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanganligi, ilmiy salohiyatli xotin-qiz professor-o‘qituvchilarning soni oshganligi aniqlanganligi kabi yangiliklardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining targ‘ibot-tashviqot tadbirlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 1-iyuldagi 282-son dalolatnomasi). Natijada tadbirlar mazmunan boy va aniq ma’lumotlar asosida tayyorlanib, tinglovchilarning e’tirofiga sabab bo‘lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar tizimida xotin-qizlar soni sanoqliligi, ular dastlab tizimga erkin yollangan xodim sifatida kirib kelishganligi, asosan kotiba-mashinist, viloyat IIB da Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlariga, qarashli bo‘lgan Manzil-ma’lumotlar idorasida ro‘yxatchi, pasport bo‘linmalarida pasportchi hamda axborot markaz kartotekalarda ro‘yxatchi, aloqa bo‘limlarida telefonist kabi lavozimlarida ishga qabul qilinganligi, keyingi yillarda xotin-qizlar orasidan professional huquqshunos kadrlar bilan birga sport sohasida erishgan yutuqlari natijasida ichki ishlar organlariga o‘zbek qizlarining kirib kelishi, asosan erkaklar bilan harbiylashgan tartibot o‘rnatilgan sohada ishlashiga milliy mentalitet bilan bog‘liq streotiplar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganligi, ichki ishlar idoralariga xotin-qizlar xizmati bilan bog‘liq bir nechta muammolar (ish vaqtining belgilanmaganligi oilaviy muhitga ta’siri, yuqori turuvchi rahbarlarning buyrug‘ini harbiylashgan tizimdek so‘zsiz bajarilishi, jismoniy holati va tayyorgarligi ichki ishlar imidjiga mosligi talab etilishi va b.), sohaning ayrim yo‘nalishlari (Jinoyat qidiruv, yo‘l patrul, patrul post, tezkor, mahbuslarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linma - konvoy xizmatlari)da xotin-qizlarning jalb etilmasligi aniqlanganligi bo‘yicha ilmiy xulosalardan foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamentining 2024-yil 23-avgustdagi 2/2209-son ma’lumotnomasi). Natijada ichki ishlar organlariga o‘zbek qizlarining faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar yoritib berilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot davrida ichki ishlar organlarida maxsus xotin-qizlar bo‘linmasi tashkil etilganligi, tizimda rahbar xodimalar soni oshganligi, huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz xodimalarning ayollar bilan ishlash samaradorligi oshganligi va jamiyatdagi ta’siri, jamoadagi ishonchni qozonishdagi o‘rni, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi hissasi, kasbiy faoliyati va lavozimlarda shahodatlangan xodimalar soni o‘sganligi va xalqaro standartlarga yaqinlashganligi hamda sohada yutuqlarga erishgan, samarali mehnat qilgan ichki ishlar xodimalarni davlat va idoraviy mukofotlanganlar dinamikasining oshganligi, tizimda xotin-qizlarga bog‘liq turli tanlovlar (“To‘maris izdoshlari”, “Fidoyi ayol

xodima”, “Kitobxon ayol xodima”, “Namunaviy oila”) tashkil etilganligi va xodimalarni munosib tarzda rag‘batlantirib borilganligi birlamchi manbalar asosida isbotlanganligi kabi yangiliklardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining targ‘ibot-tashviqot tadbirlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 1-iyuldagi 282-son dalolatnomasi). Natijada tadbirlar mazmunan boy va aniq ma’lumotlar asosida tayyorlanib, tinglovchilarning e’tirofiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, tadqiqot qismi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar organlariga xotin-qizlarning jalb etilishining huquqiy asoslari va xalqaro tajriba”** nomli birinchi bobida mustaqillik yillarida gender tenglikni ta’minlash va ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatida xalqaro tajriba masalasi, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid normalar shakllanishining asosiy bosqichlar tarixi yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* gender tenglikni ta’minlash va ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatida xalqaro tajriba masalasi tadqiq etilgan.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonning gender tenglik bo‘yicha olib borgan sa’y-harakatlari sezilarli yutuqlarga erishdi. Mamlakat, xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish, xotin-qizlarning siyosiy huquqlari, mehnat sohasida jinslar o‘rtasidagi tenglik, onalikni muhofaza qilish kabi muhim xalqaro konvensiyalarga qo‘shilish orqali gender tenglik masalasida xalqaro hamjamiyat oldida o‘z majburiyatlarini samarali bajarishga sodiq ekanini ko‘rsatdi.

1995-yilda BMTning Ayollar ahvoli bo‘yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin Harakatlar platformasi o‘ta muhim hisoblanadi. Uning muqaddimasi va 12 bo‘limi, ya’ni ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha strategiyalar, siyosat

va choralar tadqiq etilgan ayollar huquqlari bo‘yicha eng to‘liq dastur hisoblanadi[11].

Huquqni muhofaza qilish organlaridagi ayollar ulushining o‘sish dinamikasi XIX–XX asrlar oxiridagi alohida holatlardan ko‘rsatilgan. XXI asr boshlarida ayrim mamlakatlar politsiyasi xodimlarining tarkibi 30 foizi ayollardir. Bu jarayonga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi: davlat-siyosiy rejimi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniy an’analari. Ayol politsiyachilar duch keladigan muammolar: jinsiy zo‘ravonlik, “bir xil ish uchun” past maosh, martabaga erishishga to‘siqlar. Ayol militsiya xodimlari ulushining ortishi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi gender va jinsiy farqlar haqidagi ijtimoiy stereotiplarning o‘zgarishi, jinoyat xarakterining o‘zgarishi, jinoyatlarni ochishning innovatsion texnologiyalarining paydo bo‘lishi, shuningdek, profilaktika va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan konseptual e’tibor bilan bog‘liq jinoyatchilikning oldini olish[12] kabilar deyish mumkin.

Statistik dinamikani kuzatishingiz mumkin: 1980-yilda AQSh politsiyasining 5 foizi ayollar, 2014-yilda – 12 foiz. Ammo turli bo‘lim va ish sohalarida ayollar sonining taqsimlanishi har xil. 2017–2018-yillardagi ayol politsiyachilar AQShning yirik metropoliyalarida: Nyu-Yorkda – 18 foiz, Los-Anjelesda – 18 foiz, Chikagoda – 24 foiz. Federal huquqni muhofaza qilish organlarida ayol zobitlar: AQSh Kapitoliy politsiyasida – 19 foiz; Federal Qidiruv Byurosida (FBI) – 19 foiz; qamoqxonalar federal byurosida – 14 foiz; Narkotik moddalarga qarshi kurash boshqarmasida – 10 foiz. Ayol xodimlar boshqa xizmatlarda ham ishlaydi: federal marshallar, immigratsiya va bojxona nazorati, o‘rmon xizmati, pochta nazorati xizmati, bosh inspektor idorasi, maxfiy xizmat va boshqalar. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ayollar AQSh huquqni muhofaza qilish organlarining eng yuqori tuzilmalarida – 7 foizni tashkil etadi. Bugungi kunda ayollarning taxminan 20 foizi AQSh Federal qidiruv byurosida xizmat qiladi[13].

1915-yilda Buyuk Britaniya politsiyasiga kelgan birinchi ayol Edit Smit bo‘lib, u ayollar ishtirokidagi jinoiy ishlarni tergov qilishda ishtirok etgan va aybdorlarni hibsga olish huquqiga ega edi. “Teng ish haqi to‘g‘risida”gi qonun (1970) va “Jinsiy kamsitish to‘g‘risida”gi qonun (1975) qabul qilinishi bilan ilgari politsiyada erkaklarnikidan farqli martaba, vazifalar va bo‘linmalarga ega bo‘lgan ayollar xuddi shunday huquqlarga ega bo‘ldilar. Agar 2007-yilda ayol politsiyachilarning ulushi 23 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich taxminan 30 foizni tashkil etdi.

Ayol konstabillar qo‘shimcha psixologik tayyorgarlikdan o‘tadilar va ishlash ehtimoli ko‘proq[14].

---

[11] Mo‘minov A.R., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilish. – Toshkent: Adolat. 2013. – B. 365.

[12] Ж.К. Маликов. Женщины в полиции стран мира: историко-правовой аспект. / Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2021. – Т. 6, вып. 4. – С. 5.

[13] Карасев А.В. Особенности профессионального отбора и обучения кандидатов для службы в правоохранительных органах США / А.В. Карасев, Х.Б. Ципинов // Вестник экономической безопасности. 2018. № 34. – С. 283-288.

[14] Ж.К. Маликов. Женщины в полиции стран мира: историко-правовой аспект. / Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2021. Т. 6, вып. 4. – С. 7.

Birinchi marta 1977-yilda bir nechta ayol zobitlar politsiya komissari etib tayinlandi. 1972-1999-yillarda politsiyadagi ayollar soni barqaror bo‘lib, 14,5 foizni tashkil etdi. 2017-yilda Fransiya milliy politsiyasi saflarida 150 ming politsiyachi ishlagan, ularning 27 foizi ayollar edi, biroq ularning faoliyat sohalari bo‘yicha taqsimlanishi juda notekis. Hozirgi vaqtda politsiyada ham, jandarmeriyada ham ayollar erkaklar bilan bir xil testlardan o‘tadilar, farqlar faqat jismoniy faoliyat standartlaridadir. Shuningdek, Jandarmeriyada ayol xodima 10 yil ishlagandan keyin rahbarlik lavozimiga ariza berishi mumkin[15].

Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar organlarini isloh qilish va ularni global tizimga integratsiya qilish, ayollarni huquqni muhofaza qilish, sohaga ayollarni keng jalb qilishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda Rossiya politsiyasidagi ayollar soni Rossiya Ichki ishlar vazirligi xodimlarining umumiy sonining o‘rtacha 25 foizini tashkil qiladi[16].

Xulosa qilish mumkinki, dunyo miqyosida mamlakatlarning turli sohalarida gender tenglikni ta’minlash masalasiga XX asrdan boshlab e’tibor berila boshlandi. Ushbu masala ikkinchi jahon urushidan so‘ng jahon davlatlarinining ichki ishlar tizimida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, sohaga ayol xodimalar jalb etila boshlandi. XXI asr boshlariga kelib esa dunyoning rivojlangan mamlakatlari ichki ishlar tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar orasida ayollarning soni 25-30 foizga yetdi. Bu xalqaro tajriba O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid normalar shakllanishining asosiy bosqichlari tahlil etilgan. Unga ko‘ra O‘zbekistondagi xotin-qizlar huquqlari va erkinliklari tizimini yaratish bo‘yicha olib borilgan islohotlarni 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin:

birinchi bosqich – 1991–1997-yilgacha bo‘lgan davr;

ikkinchi bosqich 1998–2016-yillar;

uchinchi bosqich 2016-yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

1991–1997-yilgacha bo‘lgan davr birinchi bosqich xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiluvchi poydevor yaratildi. Jumladan, 1992-yildayoq kafolatlanib qo‘yilgan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi 1992-yildagi Konstitusiyasining 18-moddasida “fuqarolarning jinsi, millati, diniy e’tiqodidan qat’i nazar teng huquqli” ekanligi belgilangan bo‘lsa, 46-moddasida alohida ravishda “erkak va ayollarning teng huquqliligi”, 117-moddasida esa “saylash va saylanish huquqlari” kafolatlangan[17].

1996–1997-yillarga mo‘ljallangan “Xotin-qizlar mehnatini ijtimoiy muhofaza qilish” dasturi tuzildi. Unga ko‘ra 1996–1997-yillarda ayollarning mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda vazifalar belgilandi[18].

---

[15] Матвеев, С. П. Организация полицейской деятельности: французский опыт / С. П. Матвеев // Вестник Воронежского института МВД России. 2018. № 4. – С. 147-153.

[16] Сведения о состоянии работы с кадрами органов внутренних дел Российской Федерации за 2019 год: сборник аналитических и информационных материалов. – М., 2020. – С. 43.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 5-modda.

[18] SVDA, 1091-fond 1-ro‘yxat, 465-ish. – 6 b.

Ikkinchi bosqich – 1998–2016-yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqich ayol huquqlarini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu davrda ayollarning siyosiy huquqlarini ro‘yobga chiqarish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Avvalo, ayollarning saylov huquqlarini ta’minlash borasidagi milliy tajriba alohida ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 13-bobi 70-moddasi “Siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish” deb nomlanib, unga ko‘ra “Ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o‘ttiz foizini tashkil etishi kerak” ekanligi belgilab qo‘yildi[19]. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda ayollar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘ldi.

Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning mahalliy tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida, 2004-yil 24-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. O‘zbekistonda BMTning “Ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasi va Ayollarning kamsitilishiga barham berish bo‘yicha BMT qo‘mitasining yakuniy mulohazalarini bajarish yuzasidan Harakatlar milliy dasturining amalga oshirilishi haqida milliy ma’ruzalarni tayyorlaydigan tizim yaratildi[20].

Uchinchi bosqich – 2016-yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr deydigan bo‘lsak, bunda xotin-qizlarning ularning kasbiy malakasini oshirish va lavozimlarda ilgarilashini ta’minlovchi zamonaviy ta’lim metodlari va strategiyalarni joriy etish, shuningdek, sohada gender tenglikni ta’minlashga e‘tibor qaratilganligi aniqlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida IIB uchun qonun mavjud emas edi. Ushbu sohani isloh etish maqsadida tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi[21]. Ushbu qonun ichki ishlar organlariga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi vazifasini yukladi. Shuningdek, ushbu qonunning qabul qilinishi ichki ishlar organlarida xotin-qiz xodimalarning xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida bevosita inson huquqlariga oid 300 dan, xususan, ayol huquqlariga tegishli 50 dan ortiq turli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ekanligi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida konstitutsiyaviy-huquqiy norma darajasida mustahkamlandi[22]. Hozirgi kunda O‘zbekistonda amalda bo‘lgan 17 ta kodeks va 900 dan ortiq qonunlarning 400 ga yaqinida, 35 mingdan ortiq

[19] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 26.06.2019-y. 03/ 19/ 544/ 3337-son.
[20] O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 26-son, 299-modda.
[21] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 38-son, 438-modda.
[22] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-, 46-moddalarida barcha fuqarolar, jumladan ayol va erkaklarning teng huquqli ekanligi belgilangan, shuningdek, 14-bobda onalik va bolalikni davlat muxofazasida ekanligini aks ettiruvchi maxsus konstitutsiyaviy normalar mavjud.

qonunosti hujjatlarining 20 mingdan ziyodida ayollar huquqlari va erkinliklariga oid huquqiy normalar uchraydi[23].

Ichki ishlar vazirining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar jamoatchilik kengashlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga muvofiq tizimda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar bilan ishlashni yangi bosqichga ko‘tarish va samaradorligini oshirish maqsadida ichki ishlar organlaridagi xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Ichki ishlar organlaridagi xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengashi organi hisoblanadi. Xotin-qizlar kengashlari raisi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar bilan ishlash ularni har tomonlama qo‘llab-quuvvatlash hamda bu boradagi faoliyatni samarali tashkil etishga shaxsan javobgardir[24].

Xullas, mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta’minlashda milliy qonunchilik bazasini yaratishga kirishdi. Ushbu davlat siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Sohada xodimalar salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi islohotlar amalga oshirilib, 2021-yildan boshlab maxsus xotin-qizlar masalalari bo‘yicha jamoatchilik kengashlari joriy etildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibida xotin-qiz kadrlarni tayyorlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida ichki ishlar organlari tizimidagi bilim yurtlarida ayol kadrlarning tayyorlanishi va tizimdagi o‘zgarishlar, shuningdek, sohadagi kadrlarning ish bilan ta’minlanish masalalari va shaxsiy tarkibda xotin-qizlarning o‘rni yoritilgan.

Ikkinchi bobning *birinchi paragrafida* ichki ishlar organlari tizimidagi bilim yurtlarida ayol kadrlarning tayyorlanishi va tizimdagi o‘zgarishlar tahlil qilingan.

Ichki ishlar organlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, qonunchilik bazasi mustahkamlanayotgan bir davrda ayol kadrlarning tayyorlanishi hamda ularning ish bilan ta’minlanishi masalalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi kabi qonun hujjatlarining qabul qilinishi ichki ishlar organlari tizimidagi ayol kadrlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab, ularning faoliyatini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ichki ishlar organlari tizimidagi ayol kadrlarning jamiyatdagi roli va ahamiyatini oshirishga, shuningdek, ularning ish bilan ta’minlanish darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ–3216-sonli qaroriga muvofiq ichki ishlar organlari xodimlarining tayyorlanishi va kasbiy ularning malakasini oshirish jarayonlarini mukammallashtirish maqsadida Ichki

[23] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining milliy elektron bazasi. www.lex.uz, Qonun hujjatlari elektron bazasi www.norma.uz.

[24] Ichki ishlar vazirligi Manaviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamenti joriy arxivi materiallari. 2023-yil iyul.

ishlar vazirligi tasarrufida 14 ta akademik litsey tashkil qilindi[25]. Ushbu akademik litseylarda har yili 200 (Toshkent shahri uchun 250) nafardan o‘quvchi qabul qilinishi, shundan 10 foiz o‘rin xotin-qizlar uchun ajratilishi belgilab berildi.

Tadqiqotimiz davomida ma’lum bo‘ldiki, SSSRning parchalanib ketishi va MDHning tuzilishi, O‘zbekistonning to‘la mustaqil bo‘lishi, Ichki ishlar idoralarining tarkibiy tuzilishida ham Ichki ishlar vazirligi o‘quv yurtlarini boshqarish tizimida ham tub o‘zgarishlarga olib kelgan. 1992-yilning yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan SSSR Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy milistiya maktabi respublika huquqiy tasarrufiga o‘tkazildi va uning nomi o‘zgardi, ya’ni O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligining oliy maktabi deb yuritildi[26]. Oliy o‘quv yurtida ta’limning sirtqi hamda kunduzgi shakli mavjud bo‘lib, 1990–1993-yillar mobaynida 41 nafar qizlar o‘qishga qabul qilingan[27]. Biroq bu ko‘rsatkichlar viloyatlar kesimida tahlil qilinganda Farg‘ona, Andijon, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlaridan qizlar o‘qishga topshirmaganligi aniqlandi. Ushbu oliy o‘quv yurtini 1992-yilda 316 nafar kursantlar bitirgan bo‘lsa, shundan atigi 1 nafari qiz bola ekanligi aniqlandi. Bu esa mustaqilikning dastlabki yillaridayoq sohaga xotin-qiz kadrlarni jalb etilishi masalasida muammolar mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Ichki ishlar organlari tizimida kadrlar bilan bog‘liq muammolarga jiddiy ahamiyat berilishi hamda isloh etilishi natijasida 1994–1998-yillar mobaynida akademiyaga 97 nafar qizlar qabul qilinganligini ko‘rishimiz mumkin[28]. Ushbu davr mobaynida bilim yurtida faqatgina 1 nafar ayol xodima (Qurbobvekova A.M.) professor-o‘qituvchilar tarkibida kursantlarga dars bergan.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida 2000–2005-yillar mobaynida (5 yillik) olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 109 nafar xotin-qizlar oliy o‘quv yurti kursantiga aylandi[29].

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi akademiyasida ham ikki yuz nafarga yaqin xotin-qizlar samarali mehnat qilmoqda. Professor-o‘qituvchilardan 10 nafari fan doktori, 31 nafari fan nomzodi va falsafa doktori ilmiy darajasiga ega. Ularning 15 nafari dotsent, 7 nafari professor ilmiy unvonlariga sazovor bo‘lishgan[30].

2018-yilda ham ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3919-son qarori[31] bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi malaka oshirish fakulteti, akademik litseylar bilan ishlash bo‘limi, modellashtirish va simulyatsiya markazi hamda pedagogik kadrlar tayyorlash kursi negizida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining

[25] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 33-son, 844-modda.
[26] Xalq xizmatida 75 yil. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 91.
[27] Ichki ishlar akademiyasining joriy arxivi. Akademiyaning 1990-1993-yilgi hisobot materiallari.
[28] Ichki ishlar akademiyasining joriy arxivi. Akademiyaning 1994-1998-yilgi hisobot materiallari.
[29] Ichki ishlar akademiyasining joriy arxivi. Akademiyaning 2000-2005-yilgi hisobot materiallari.
[30] Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi (gov.uz)
[31] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.08.2018-y., 07/18/3919/1787-son.

Malaka oshirish instituti tashkil etildi[32]. Bu tizimida xotin-qiz xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilash va takomillashtirish kerakligini ta’minlaydi.

IIV Malaka oshirish institutida 2021-yilda 6 605 nafar ofitserning malakasini oshirish amalga oshirilgan, bu jarayonda 34 nafar ayol xodim ham malaka oshirish kurslarida qatnashgan. 2022-yil davomida esa 480 nafar ayollar kasbiy bilim va malakalarini oshirishga muvaffaq bo‘lishgan, bundan tashqari, 162 nafar xotin-qizlar Akademiyaning sirtqi ta’lim shakliga qabul qilinadi.

Umuman olganda, mustaqillikninng dastlabki yillarida ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ta’lim tizimida xotin-qiz kursantlarning ulushi kam edi. Keyingi yillarda sohaga oid muammolarning bartaraf etish yuzasidan olib borilgan ishlar natijasida xotin-qizlar uchun akademiyada maxsus 10 foiz o‘rinlar ajratilib, amalda esa ayrim yillarda kvotadan ortiqcha kursantlar qabul qilindi. Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi bilim yurtlarini yanada takomillashtirish maqsadida 14 ta akademik litseyi tashkil etilishi hamda xodimalarning xizmatdagi ko‘nikma va bilimlarini yanada boyitish maqsadida 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Malaka oshirish instituti tashkil etildi. Bu esa ichki ishlar organlari tizimidagi bilim yurtlarda ayol kadrlarning tayyorlanishi va ularning sonini oshishiga xizmat qildi.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* sohadagi kadrlarning ish bilan ta’minlanish masalalari va shaxsiy tarkibda xotin-qizlarning o‘rni ochib berilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar tizimida xotin-qizlar soni ko‘p emasdi, ular dastlab tizimga erkin yollangan xodim sifatida kirib kelishgan, asosan kotiba-mashinist, Viloyat IIB Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlariga qarashli bo‘lgan Manzil-ma’lumotlar idorasida ro‘yxatchi, pasport bo‘linmalarida pasportchi hamda Axborot markazlarida kartotekalarda ro‘yxatchi, aloqa bo‘limlarida telefonist kabi lavozimlarida ishga qabul qilingan. Shuningdek, o‘zbek qizlarining militsiya sohasiga kirib kelishi asosan erkaklar bilan harbiylashgan tartibot o‘rnatilgan sohada ishlashiga milliy mentaletit bilan bog‘liq streotiplar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmasdi. Bunday muammolar natijada, ichki ishlar idoralariga xotin-qizlarning kirib kelishi kam ekanligi kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida, xususan, 1991-yilda, Ichki Ishlar Vazirligi tarkibida yangi tuzilmalar – Shaxsiy tarkibni tarbiyalash, ijtimoiy va huquqiy himoya qilish boshqarmasi kabi boshqarmalar tashkil etilishi, mamlakatimizda ijtimoiy va huquqiy tizimni isloh qilishga qaratilgan muhim qadam edi[33]. Bu o‘zgarishlar nafaqat vazirlikning ichki tuzilmasini takomillashtirishga, balki jamiyatimizda, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy mavqeyini oshirishga qaratilgan islohotlarning bir qismi sifatida ham qaralishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan

[32] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2018-yil yakunlari bo‘yicha hisoboti.
[33] O‘zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi joriy arxivi. Vazirlikning 1991-yil hisobot materiallari.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash tizimida tubdan o‘zgarishlarni boshlab berdi[34]. Bu qaror orqali xizmatga qabul qilish, lavozimga tayinlash, xodimlarning malakasini oshirish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish kabi muhim jarayonlar takomillashtirildi. Ayollarning ichki ishlar organlaridagi roli va ahamiyatiga katta e’tibor qaratilgan bu yangilanishlar, xotin-qizlarning kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon etishlariga imkon beradi.

2017-yilda qabul qilingan yangi ustav ichki ishlar organlari xodimlari uchun xizmat intizomiga qo‘yilayotgan talab va odob-axloq qoidalarini belgilab berdi. Ushbu ustavning qabul qilinishi ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatida qonuniylik va yuqori darajadagi xizmat intizomini ta’minlashga xizmat qilmoqda, bu esa ularning jamiyatdagi obro‘sini yanada oshiradi va ichki ishlar tizimidagi xotin-qizlarning ham professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida ichki ishlar organlarida xotin-qizlar salmog‘ining 5 foizga oshganini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning 51,2 foizi oliy ma’lumotga ega bo‘lib, shularning 14,9 foizi yuridik ma’lumotli mutaxassislardan iborat. Shaxsiy tarkibning 49,8 foizi o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lsa, xodimlarning deyarli yarmini yoshlar tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning 10 foizi sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar salmog‘ini tashkil etadi.

2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarida 7216 nafar ayol xodimalar faoliyat olib borgan bo‘lib, shulardan shahodatlanganlar 2314 nafar, ofitserlar 1146 nafar, serjantlar 283 nafar, safdorlar 885 nafar, ishchi-xizmatchilar 4902 nafarni tashkil etgan. Ushbu xodimlardan rahbar tarkibiga kiritilganlar 58 nafar, rahbar kadrlar zaxirasiga olinganlar 33 nafar, podpolkovnik unvoniga ega bo‘lganlar 18 nafarni tashkil etgan[35].

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarida 7207 nafar ayol xodimlar faoliyat olib borgan bo‘lib, shulardan shahodatlanganlar 2246 nafar, ofitserlar 1082 nafar, serjantlar 291 nafar, safdorlar 873 nafar, ishchi-xizmatchilar 4961 nafarni tashkil etgan[36]. Mazkur ko‘rsatkich ichki ishlar organlaridagi shaxsiy tarkibni ta'kidlab, ayollar uchun xavfsizlik sohasidagi imkoniyatlarni kengaytirish borasidagi sa’y-harakatlarning amaliy ifodasini ko‘rsatadi. Ayollar tarkibidagi ofitserlar va boshqa harbiy unvon egalarining soni, ularga yuqori lavozimlarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini taqdim etuvchi tuzilishdagi islohotlarni anglatishi mumkin. Bu esa, umumiy xavfsizlik tizimidagi gender tenglikni ta’minlash va ayollar uchun professional rivojlanish yo‘llarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar organlarida xotin-qiz xodimalarning ulushi kamchilikni tashkil etdi. Ayol xodimalar dastlab ichki ishlar organlarida yordamchi bo‘linmalarda faoliyat olib bordilar. Keyingi yillarda ichki ishlar organlaridagi kadrlar masalasiga alohida e’tibor berilishi natijasida sohada xotin-qizlar kadrlar soni ortib, ular orasida shahodatlanganlar soni 2246 nafarga yetdi va ular orasidan rahbar kadrlar yetishib

[34] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2017-y. 07/17/3413/0334-son.
[35] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazrilikning 2020-yil hisobot materiallari.
[36] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 2024-yil 1-yarim yillik hisobot materiallari.

chiqdi. Kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, ayollarning professional mahoratini oshirib ularning xizmatdagi samaradorligini yuksaltirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatida xotin-qizlarning ishtiroki”** nomli uchinchi bobida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz kadrlarning faoliyati, shuningdek, ichki ishlar organlarida davlat tomonidan e’tirofga sazovor bo‘lgan xotin-qizlar va ularning muvaffaqiyati masalalari ko‘rib chiqilgan.

Uchinchi bobning *birinchi paragrafida* huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz kadrlarning faoliyati tahlil qilingan.

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston xotin-qizlarni jamiyatning turli jabhalarida, jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faollashtirishga katta e’tibor qaratdi. Bu davrda xotin-qizlar, ayniqsa, ta’lim va tarbiya sohasida, yoshlar orasida ma’naviyat va ma’rifiy ishlarni olib borishda muhim o‘rin tutdilar, ularning ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi hissasi beqiyosdir.

1993-yilning birinchi yarmida O‘zbekiston Respublikasi Respublika prokuratura organlari voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlarning bajarilishini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli tekshirishlar o‘tkazdi. Bu davr mobaynida 912 ta tekshiruv amalga oshirilib, ular natijasida qonun ijrosi bilan bog‘liq turli kamchiliklar aniqlandi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 746 ta taqdimnomalar tegishli idoralarga kiritildi[37]. Ushbu taqdimnomalarning 38 tasi xotin-qiz kadrlar tomonidan o‘rganilgan ishlar natijasida taqdim etilgan.

2008-yil ma’lumotlariga ko‘ra, mavjud MTPlarining 81 foizida sport maydonchalari, 72 foizida mahalla yoshlari uchun turli yo‘nalishdagi to‘garaklar hamda 66 foizida kichik biznes xonalari, tikish-bichish, duradgorlik va milliy hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat yuritgan[38]. Ichki ishlar organlarida voyaga yetmaganlar bilan ishlashda xotin-qiz xodimalarning jalb etilishi natijasida yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish hamda ularga psixologik ko‘mak berish, ularning xulqida mavjud muammolar bartaraf etilishida ko‘mak berildi. Bu esa voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 15 foizga kamayishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasining qator qonunlari, jumladan, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida[39]” (2008-yil), “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida[40]” (2014-yil) va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida[41]” (2017-yil), huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlat organlarining vakolatlari, faoliyat yo‘nalishlari va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilish usullarini aniq belgilab beradi. Bularning barchasi, mamlakatda

[37] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi joriy arxivi. Vazirlikning 1993-yilgi hisobot materiallari.

[38] Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlarining jamoat tartibi va xavsizligini ta’minlash faoliyatini boshqarishni takomillishtirish. yu.f.n.... diss. avtoreferati. – Toshkent: IIV akademiyasi. 2008. – B. 15.

[39] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 16-son, 118-modda.

[40] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 20-son, 221-modda.

[41] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 2-modda.

huquq-tartibotni mustahkamlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan ishlar hisoblanadi. Jumladan, xotin-qiz kadrlarning samarali ish mehnatlari natijasida 1370 dan ortiq jinoyatlarning oldini olishga erishildi[42].

Respublika miqyosida huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatlarning sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan oila-turmush munosabatlari doirasida og‘ir va o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlar hamon kuzatilmoqda. Xususan, qasddan odam o‘ldirish jinoyati 2017-yilda 2016-yilga nisbatan Namangan viloyatida 6 baravarga, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida 3 baravarga, Buxoro viloyatida esa 50 foizga oshgan. Respublikada 2017-yilda qasddan odam o‘ldirish va unga suiqasd qilish jinoyatlarining 61 tasi eri tomonidan xotiniga, 10 tasi xotini tomonidan eriga, 108 tasi qarindoshiga, 8 tasi qo‘shnisiga nisbatan sodir etgan. 2018-yilning 6 oyida 229 ta qotillikning 90 tasi aynan oila-turmush munosabatlari doirasida amalga oshgan”[43]. “Natijada 2018-yilda umumiy jinoyatchilik 36 foizga kamaygan, 3 ming 205 ta yoki 35 foizdan ziyod mahallada esa bironta ham jinoyat sodir etilmagani aniqlandi. Jumladan, mahallalarda faoliyat xotin-qiz profilaktika-inspektorlari tomonidan ushbu davrda sodir etilishi mumkin bo‘lgan 50 ga yaqin jinoyatlarning oldini olishga erishilgan[44].

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentida 930 nafar ayollar faoliyat olib borib, shundan shahodatlanganlar 351 nafar, ofitserlar 120 nafar, serjantlar 95 nafar, safdorlar 136 nafar, erkin yo‘llanganlar 579 nafarni tashkil etadi[45]. Ushbu ayol xodimlardan 17 nafari rahbarlik lavozimida xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari sohasida qator o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xotin-qizlarning sohaga jalb etilishi voyaga yetmaganlar bilan ishlash, huquqbuzarliklarni oldini olish hamda jazoni ijro etish muassasalarida ham xodimalar faoliyati naqadar muhimligini isbotladi. Ularning jamiyatdagi roli, jamoadagi ishonchni qozonishdagi o‘rni, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi hissasi, kasbiy faoliyati sababli voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlar, huquqbuzarliklar soni yildan yilga kamayib bordi. Ayol mahkumalar bilan xodimalarning ishlash samaradorligini oshirish natijasida jazoni ijro etish muassalaridagi mahkumalarning intizomiy jazo olish holatlari kamaydi hamda ularning 100 ga yaqini muddatidan oldin ozod etildi.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* ichki ishlar organlarida davlat tomonidan e’tirofga sazovor bo‘lgan xotin-qizlar va ularning muvaffaqiyati masalasi ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi siyosat va amaliyotlar, ularning mukofotlanishi va jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarining bir qismidir. Bu yondashuvlar, ularning

[42] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 2017-yil hisobot materiallari.

[43] Ismailov I., Murodov A. Oiladagi zo‘ravonlik va u bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasi. // Odil sudlov. Huquqiy, ilmiy-amaliy nashr. 2018. № 10. – B. 47.

[44] Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – faravon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir / Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2018-yil 8-dekabr.

[45] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining joriy arxivi. Departamentning 2022-yil hisobot materiallari.

professional va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga umumiy xavfsizlik va barqarorlikni ham kuchaytirdi.

1993-yilda O‘zbekiston Ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgan xotin-qiz xodimlardan ikki nafari davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan, bu esa ichki ishlar tizimida xotin-qizlarning muhim hissasini ta’kidlaydi. Ulardan biri “Faxriy yorliq” bilan taqdirlangan bo‘lib, bu mukofot uning vazifalarni bajarishdagi a’lo natijalari va kasbiy fidoyiligi uchun berilgan. Ikkinchi xodim “Xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” unvoniga sazovor bo‘lgan, bu esa u xotin-qizning ichki ishlar tizimida ta’lim sohasiga qo‘shgan hissasi katta ekanligini ko‘rsatdi[46].

1996–2000-yillarda Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlarning 18 nafari davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan bo‘lib, shundan 2 nafari “Faxriy yorliq”, 2 nafari “Do‘stlik” ordeni, 2 nafari “Jasorat” medali, 11 nafari “Shuhrat” medali, 1 nafari “Xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi kabi mukofotlarga loyiq ko‘rilgan[47].

Xotin-qizlarning mehnatdan manfaatdorligini oshirish maqsadida 1999-yil 14-aprelda 760-I-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi[48]. Bu qonun va chora-tadbirlar natijasida ichki ishlar tizimida xotin-qizlarning soni va ularga berilgan vazifalarning ahamiyati oshdi. Ular ko‘proq mas’uliyatli lavozimlarga tayindi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat tartibini saqlash kabi muhim vazifalarni bajarishda faol ishtirok etdi. Bu o‘zgarishlar ichki ishlar tizimida gender tenglikni ilgari surish va xotin-qizlarning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirishga xizmat qilgan.

2001–2005-yilda Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlarning 21 nafari davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan bo‘lib, shundan 3 nafari “Faxriy yorliq”, 1 nafari “Mehnat shuhrati” ordeni, 2 nafari “Do‘stlik” ordeni, 6 nafari “Jasorat” medali, 8 nafari “Shuhrat” medali, 1 nafari “Xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” kabi mukofotlarga loyiq ko‘rilgan[49].

Ichki ishlar organlarida xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning xizmatlari uchun munosib taqdirlash borasidagi sa’y-harakatlar, ushbu sohaning xodimlari uchun nafaqat rag‘bat, balki ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 6-dekabrdagi Farmoni bilan 25-oktabr “Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni” sifatida e’lon qilinishi, ushbu soha xodimlarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlaydi[50].

2006-2010-yillarda Respublika Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlarning 26 nafari davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan bo‘lib, shundan 1 nafari “Mehnat shuhrati” ordeni, 25 nafari II darajali “Shon-sharaf” ordeni, 8 nafari “Do‘stlik” ordeni, 2 nafari “Jasorat” medali, 6 nafari “Sodiq xizmatlari uchun” medali, 3 nafari “Shuhrat” medali, 1 nafari “Xizmat ko‘rsatgan sport ustasi” kabi mukofotlarga loyiq ko‘rilgan[51].

---

[46] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 1993-yil hisobot materiallari.
[47] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 1996-2000-yillar hisobot materiallari.
[48] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 5-son, 112-modda.
[49] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 2001-2005-yillar hisobot materiallari.
[50] Postda. 2008 yil 25 oktabr. № 43.
[51] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 2006-2010-yillar hisobot materiallari.

2011–2015-yillarda Respublika Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlarning 24 nafari davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan bo‘lib, shundan 2 nafari “Mehnat shuhrati” ordeni, 5 nafari “Do‘stlik” ordeni, 3 nafari “Jasorat” medali, 4 nafari “Sodiq xizmatlari uchun” medali, 8 nafari “Shuhrat” medali, 2 nafari “Xizmat ko‘rsatgan yurist” kabi mukofotlarga loyiq ko‘rilgan[52].

Respublikada xotin-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan mukofotlar mavjud. Bular “Zulfiya”[53] va “Mo‘tabar ayol”[54] mukofotlaridir. Ichki ishlar organlarida ham ushbu mukofotga sazovor bo‘lgan xodimalar mavjud. Jumladan, 2016-yilda Qoraqalpog‘iston respublikasidan leytenant Bayjigitova Aziza Alliyar qizi, 2017-yilda Navoiy viloyatidan leytenant Kamolova Dilnoza Samariddinovna va Buxoro viloyatidan leytenant Idiyeva Aziza Jo‘rabek qizi, 2019-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan leytenant Qayipnazarova Sapura Jalg‘asbay qizi, 2022-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan safdor Aymuratova Azada Juginis qizi hamda Buxoro viloyatidan Latipova Azizabonu Hakim qizi kabi xodimalar “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lishgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ichki ishlar xodimalari orasida davlat mukofotiga sazovor bo‘lganlar 95 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, idoraviy mukofotlar bilan rag‘batlantirilgan uch mingdan ortiq ayol xodimlar, ichki ishlar organlarining har kuni va har bir vazifasida muhim hissa qo‘shayotgan fidoyi xodimlar ekanligini ko‘rsatadi. Bu kabi rag‘batlantirishlar xodimlarning xizmatdagi samaradorligini oshirishga, ularning kasbiy mahoratini yanada rivojlantirishga va xizmat burchiga bo‘lgan sadoqatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayol xodimlarning bu kabi yutuqlari kelajak avlodlarga ibrat va ilhom manbai bo‘lib, ularni ham jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etishga undaydi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlarning 1991–2022-yillardagi faoliyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar va umumlashmalarni chiqarish imkonini berdi:

1. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlar faolligini oshirish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratildi. Davlat tashkilotlarida gender tenglikni ta’minlash dastlabki qadam tashlandi. “Xotin-qizlar” qo‘mitasining tashkil topishi bu chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy vazifani bajardi. Bu Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, sohada xodimalar sanoqli bo‘lgan bo‘lsa-da Ichki ishlar akademiyasiga birinchi kursant qizlar qabul qilindi va tizim uchun mutaxassis kadr xodimalar tayorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi, biroq tom ma’noda ichki ishlar organlarida gender tenglik boshqa tizimlarga nisbatan yetarli darajada ta’minlanmadi.

2. Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash ta’lim tizimida xotin-qizlarni salmog‘i yildan yilga dinamikasi o‘sdi, milliy tarkibida ham o‘zgarishlar kuzatilib, ichki ishlar akademiyasi tashkil etilgandan so‘ng xotin-qiz kursantlari uchun

[52] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining joriy arxivi. Vazirlikning 2011-2015-yillar hisobot materiallari.
[53] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 6-son, 151-modda.
[54] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.04.2018-y., 09/18/257/0997-son.

viloyatlar kesimida kvotalar ajratilmaganligiga qaramasdan so‘nggi yillarda huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqilib xotin-qizlar uchun akademiyada maxsus 10 foiz o‘rinlar ajratilib, amalda esa ayrim yillarda kvotadan ortiqcha kursantlar qabul qilindi. Ichki ishlar litseylari tashkil etilganligi, milliy kadrlarning yetishib chiqqanligi, oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassis huquqshunos xodimalarning ko‘payganligi evaziga nomutaxassis kadrlar ichki ishlar organlariga qabul qilinishi to‘xtatildi.

3. Ichki ishlar akademiyasi va o‘rta maxsus bilim yurtlarida o‘quv-uslubiy jarayonda innovatsion yondashuvlar, axborot va yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi, ilmiy tadqiqot olib borilishi uchun qulay sharoitlarning yaratilishi tizimdagi ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatli xotin-qiz professor-o‘qituvchilarning soni oshishiga xizmat qildi;

4. Ichki ishlar organlarida xotin-qizlar dastlab tizimga erkin yollangan xodim sifatida kirib kelishgan. Xususan, kotiba-mashinist, viloyat IIB da Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limlariga, qarashli bo‘lgan Manzil-ma’lumotlar idorasida ro‘yxatchi, pasport bo‘linmalarida pasportchi hamda Axborot markaz kartotekalarda ro‘yxatchi, aloqa bo‘limlarida telefonist kabi lavozimlarida ishga qabul qilingan. Keyingi yillarda xotin-qizlar orasidan professional huquqshunos kadrlar bilan birga sport sohasida erishgan yutuqlari natijasida ichki ishlar organlariga o‘zbek qizlari kirib keldi.

5. Ichki ishlar idoralarida harbiylashgan tartib o‘rnatilganligi evaziga xotin-qizlar xizmati bilan bog‘liq bir nechta muammolar: zaxira kadrlarning yetishmasligi, shahodatlangan xotin-qiz kadrlarning kamligi, muhim lavozimlarga ularning soni cheklanganligi, ish vaqtining belgilanmaganligi oilaviy muhitga ta’siri, yuqori turuvchi rahbarlarning buyrug‘ini harbiylashgan tizimdek so‘zsiz bajarilishi, jismoniy holati va tayyorgarligi ichki ishlar imijiga mosligi talab etilganligi, tezkor qidiruv va tergov jarayonlariga, yo‘l patrul, patrul post, tezkor, mahbuslarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linma – konvoy xizmatlarida xotin-qizlarni jalb etilmasligi, ayollar ishtirok etishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda: ayollar yashaydigan xonadonlarni tintuv qilish, ularni so‘roq qilish hamda oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarni samarali ko‘rib chiqish imkoniyatlarini cheklashga sabab bo‘ldi.

6. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot davrida ichki ishlar organlarida xotin-qiz xodimlar bilan ishlash maxsus xizmati tashkil topdi, tizimda rahbar xodimalar soni oshdi, huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jazoni ijro etish muassasalarida xotin-qiz xodimalarning ayollar bilan ishlash samaradorligi oshdi, ularda yuqori lavozimdagi ofitser xotin-qizlar samarali mehnat qildi. Bu yo‘nalishda xodimalarning jamiyatdagi roli, jamoadagi ishonchni qozonishdagi o‘rni, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi hissasi, kasbiy faoliyati va lavozimlarda shahodatlangan xodimalar soni o‘sganligi hamda xalqaro standartlarga yaqinlashganligi kuzatildi.

7. Sohada samarali mehnat qilgan, yutuqlarga erishgan, ichki ishlar xodimalarining davlat tomonidan turli mukofotlarga hamda Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan idoraviy mukofotlarga sazovor bo‘lganlarning soni, ayniqsa, tizimda xotin-qizlar uchun maxsus bo‘linma tashkil etilgandan so‘ng ko‘paydi. Shuningdek, tizimdagi xotin-qizlar uchun ilk bor tashkil etilgan Forumlar doirasida

turli tanlovlar: “To‘maris izdoshlari”, “Fidoiy ayol xodima”, “Kitobxon ayol xodima”, “Namunaviy oila” kabilar tashkil etildi, sport hamda ma’naviy-ma’rifiy sohada erishgan yutuqlari uchun xodimalar munosib tarzda rag‘batlantirib borildi.

Tadqiqotning natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xotin-qizlar faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Ichki ishlar akademiyasida tajribali xodimalar orasidan rahbar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlovchi “Strategik boshqaruv”, “Taktik boshqaruv” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishiga xotin-qizlar uchun kvota ajratilishi lozim;

2. Viloyatlar miqyosida ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan xotin-qiz xodimlarining esdaliklarini yozib olib, nashr etish, mashxur xodimalarga bag‘ishlangan kinofilmlar yaratish va ulardan shaxsiy tarkibning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish bilan bog‘liq tadbirlarda foydalanish maqsadga muvofiq;

3. Respublikadagi viloyatlar ichki ishlar boshqarmasi huzurida muzeylar tashkil etilib sohada faoliyat ko‘rsatgan xotin-qiz xodimlariga oid muzey eksponatlarini shakllantirish lozim; faoliyatini o‘zida aks ettirgan muzey tashkil qilish zarur;

4. Mahbuslarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linma xizmatlarida ayollar ishtirok etishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda, ya’ni ayollar yashaydigan xonadonlarni yoki ularning o‘zini tintuv qilish, ularni so‘roq qilish hamda oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarni samarali ko‘rib chiqish maqsadida xotin-qiz xodimalarni kengroq jalb etish zarur.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

РУСТАМОВА ЗАМИРА БОБОКУЛОВНА

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (1991-2022 гг.)

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за B2023.2.PhD/1456.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Эргашева Юлдуз Алимовна** доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Ерметов Аваз Абдуллаевич** доктор исторических наук, профессор
	Кабулов Эшболта Атамуратович доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	**Шахрисабзский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «14» января 2025 году в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел: (+99875) 225-34-13; факс: (+99875) 221-00-56; e-mail: kardu@mail.ru). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 254). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел: (0 375) 225-34-13).

Автореферат диссертации разослан «3» января 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от «3» января 2025 года).

Б.Ж. Эшов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

Н.Н. Ражабова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, к.и.н., доцент

О. Буриев
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, к.и.н., профессор

Сканировано с CamScanner

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В XX веке в мире, в том числе и в Узбекистане, усилилось внимание к вопросам женщин, что способствовало разработке правовых и нормативных основ для защиты их интересов, а также созданию международных и национальных институтов, занимающихся вопросами женщин. В международных документах, принятых ООН, определены задачи улучшения политического и социально-экономического положения женщин, повышения их профессиональной подготовки, обеспечения всех форм гендерного равенства, а также разработка современных механизмов укрепления их роли в обществе, которые продолжают оставаться актуальными на мировом уровне.

Изучение ведущими научно-исследовательскими центрами мира участия женщин в реализации общественных реформ считается одним из приоритетных научных направлений. В частности, проводятся научные исследования, направленные на изучение привлечения женщин к работе в органах внутренних дел, изменения участия женщин в деятельности этих органов, использование ими современных методов и технологий в профессиональной подготовке и деятельности, а также инновационные подходы, направленные на укрепление их позиции в обществе. Эти подходы имеют важное значение для более эффективной организации деятельности женщин в органах внутренних дел и укрепления их статуса в обществе.

В последние годы в Узбекистане проводятся реформы с целью увеличения социально-политической активности женщин, усиления их роли в государственном управлении, улучшения условий труда и жизни, а также всесторонней поддержки. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев: «Создание свободной, благоустроенной и процветающей жизни для трудолюбивого, благородного народа нашей страны, прежде всего для наших женщин, определено как главная приоритетная задача нашего государства и общества»[1]. Поэтому защита прав и интересов женщин, обеспечение гендерного равенства, защита семьи, материнства и детства, а также предотвращение проблем, с которыми женщины сталкиваются в своей социальной и личной жизни, включая насилие и дискриминацию, стали приоритетным направлением государственной политики. Этот процесс значительно изменил подход к вопросам женщин в органах внутренних дел Узбекистана. Данное обстоятельство показывает необходимость проведения мероприятий по увеличению числа женщин в органах внутренних дел в годы независимости, их активную деятельность на различных должностях и совершенствование политики обеспечения гендерного равенства. В свою очередь, это подчеркивает важность укрепления роли женщин в системе внутренних дел, повышения их профессиональной квалификации и

[1] Мирзиеев Ш. Создание в новом Узбекистане достойных условий как для всего нашего народа, так и для наших женщин остается нашей важнейшей задачей. 7 марта 2024 г.// https://president.uz/uz/lists/view/7076.

продвижения по службе с помощью внедрения современных образовательных методов и стратегий, а также актуальность обеспечения гендерного равенства в данной сфере.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-562 от 2 сентября 2019 года «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин»[2], Указах Президента Республики Узбекистан № УП-1084 от 2 марта 1995 года «О мерах по увеличению роли женщин в государственном и общественном строительстве Республики Узбекистан»[3], № УП-2246 от 17 марта 1999 года «О дополнительных мерах по укреплению социальной защиты женщин»[4], № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»[5], Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-3413 от 29 ноября 2017 года «О мерах по кардинальному совершенствованию работы с кадрами и организации службы в органах внутренних дел»[6], приказах Министра внутренних дел от 16 мая 2020 года «О создании Консультативного совета по вопросам обеспечения равных прав и возможностей для женщин и мужчин в органах внутренних дел» и от 24 сентября 2021 года «О создании общественных советов женщин в органах внутренних дел», а также других нормативно-правовых актах, касающиеся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики I. «Методы формирования и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности предмета. Анализ научной литературы по вопросам женщин и гендерного равенства в Узбекистане показывает, что эта тема всегда была в центре внимания исследователей. Исходя из методологических подходов и проблемно-хронологических особенностей, существующую литературу по этой теме можно классифицировать следующим образом: 1) научные исследования, выполненные в Узбекистане в период независимости; 2) исследования иностранных учёных.

